

MILLIY ELEMENTLARDAN FOYDALANIB, LIBOSLAR TO‘PLAMINI DIZAYNLOYIHASINI ISHLAB CHIQUISH.

Yunusxodjayeva Nilufar Doniyorovna

Namangan To‘qimachilik Sanoati Instituti, “Dizayn” kafedrasida assistenti

Annotatsiya: Batik usullarini va turlarini o‘rganib, Milliy zamon talablariga javob beradigan liboslar to‘plamini yaratish.

Kalit sozlar: Batik, badiiy bezash, Sovuq batik, issiq batik, tuguncha texnikasi, ekselsior, gaz, batik, shoyi, liboslar toplami, Milliy liboslar, amaliy san'ati,

O‘zbek milliy liboslari xalq amaliy san’atining nodir qatlamini tashkil etadi. O‘zbek milliy liboslar o‘z kelib chiqish tarix va boy madaniy merosiga ega. O‘zbek xalq amaliy san’ati ko‘p asrlik an’analarnining saqlanib qolinishi hamda rivojlanishi natijasida ma’naviy-axloqiy tiklanishiga sabab bo‘ldi. Shu bois, bugungi kunda o‘zbek milliy qadriyatlar va urf-odatlar o‘rganilib tahlil qilinmoqda O‘zbek milliy liboslarning xalq amaliy san’atida o‘ziga xos ahamiyatiga ega. Bunda milliy liboslar yaxlit ansambl ko‘rinishida shakllanganligi milliy liboslar madaniy hayot tarzi va urf-odatlarni bilan cham barchas bog‘liqdir. Milliy liboslarni o‘rganish va tadbiiq etishning maqsadi madaniy boy me’rosni o‘rganib, yanada boyitishdir. O‘zbek milliy liboslar asrlar davomida yaxlit san’at asari ko‘rinishida shakllangan. Bunday ko‘rinishidagi milliy liboslar yillar davomida ko‘pgina etnogroflarni o‘ziga jalb etib kelgan, xalq amaliy san’atining ahamiyati bugungi kunga kelib dolzarb masalalardan biriga aylandi va madaniy merosga katta ahamiyat berilmoqda. Zamonaviy moda olamida tabiiy gazlamaga batik usulidan foydalanib, bezak berish, uni yanada jozibador va o‘zgacha ko‘rinishiga olib keladi.

Batik (batik) – indoneziyacha so‘z bo‘lib, (batik- «tochka» yoki «tomchi», ip tolali mato degan ma’noni anglatadi). Batik - bu matoga badiiy bezash texnikasi va turli xil uslublarni umumlashtirilgan nomi. Batik san’ati texnikasini tayyorlash asosida ranglarni saqlab qolish va guli yoki fonni ajratishda rezerv bilan ishlash prinsiplari yotadi.

Indoneziya an'anaviy batikning vatani hisoblanadi, shunga qaramay matoga gul solib bezash azaldan Peru, Yaponiya, Shri-Lanka, Orta Osiyo, Turkiya, Iroq, Afrika, Misr va Xindiston, Xitoyda foydalanilgan. U vaqtda batik shunchaki matoga tushirilgan chiroyli gul sifatida qaralmagan, u ilohiy hisoblanardi va uning naqshlari himoya sifatida foydalanilardi. Yevropada batik XX asr boshlariga kelib mashhurlikka erishdi. Bugungi kunga kelib batik liboslar, dasturxon, qo'l sochiqlar, bezatilgan yostiqlar, choyshablar, pardalar, divanlarni qoplashda foydalanilmoqda.

Batik ishlash jarayonida har xil texnikalar bo'lib, uni bir necha turga bo'lish mumkin: Issiq batik, sovuq batik, tuguncha texnikasi, erkin gul solib bezash, aerografiya batik.

Issiq batik- paxta yoki shoyi ustida bajarilgan bo'lishi mumkin. Mum mato ustiga uchi uchli bambukdan qilingan yog'och-pat, moyqalam yoki maxsus asbob-chanting orqali chiziladi. Ushbu jarayon shoyi yoki paxta tolali mato ustiga rasm chegaralarini chizish bilan boshlanadi. Bo'yalishi kerak bo'lmagan maydonlarni eritilgan mum bilan bir qatlam quyib chiqiladi va shundan so'ng mato ustiga rasm chizish mumkin bo'ladi. Keyingi bosqichda matoning ustiga yana mumni bir qatlam quyib chiqilib bo'yaladi. Issiq batik texnikasini qo'llanilganda bu jarayon kamida to'rt marta takrorlash zarur bo'ladi. Moylarni tez-tez aralashtirish sababli mato o'z sifatini va rangini yo'qota boradi. Shu sababli, mato turli ranglarga ketma-ketlikda bo'yab boriladi. So'ngra ortiqcha moyni yo'qotib, mumni dazmol yordamida bo'g'lantirib dazmollanadi. Qadimda matoga bezak berib uni bo'yashda, turli texnikalar yordamida matolarni bo'yash amalga oshirilgan. Masalan, parafin, mum, kanifoli yoki chaqich yordamida amalga oshirilgan. Hozirgi kunda issiq mumdan foydalanishadi va uni batikka qo'llanishida ko'pgina texnikalar mavjud: rezervni moyqalamlar yordamida yoki oddiy matoga tomdirish yo'li bilan amalga oshirish mumkin.




Sovuq batik-issiq batikdan farqi shuki, rezerv sovuq xolatda amalga oshiriladi. Rezervli birikma rangsiz oq yoki turli rangda bo'lishi mumkin. Sovuq batikda rasm chizish uchun rezervdan parafin va benzin eritmasi asosida foydalaniladi. Bu metodning badiiy o'ziga xos tomoni shundaki, rangli kontur (chegara) si rasmlarga aniq, grafik xarakterni bera oladi. Rezervlangan birikmani matodagi rasm konturi (chegara) bo'yicha

maxsus turli diametrli shisha naycha yordamida beriladi. Sovuq batik texnikasida asosan, tabiiy shoyidan foydalaniladi, ammo birinchi malaka jarayonini yupqa paxtatolali matoda amalga oshirish mumkin. Shoyi batikni mustahkamlash uchun bug‘lantirish kerak bo‘ladi. Bu jarayondan so‘ng matoni qo‘rqmasdan yuvish va dazmollash mumkin.

Matoga erkin rasm solish – rezervli aralashmalardan foydalanmasdan bajariladi. Bu usulda matoga rasmlarni erkin bo‘yoq berib ishlanib, faqatgina ayrim hollarda yakuniy qayta ishlash rezerv orqali amalga oshiriladi. Matoga erkin rasm solishning bir necha usullari mavjud: matoga bo‘yoqlarni bosma tarzda berish, bo‘yoqlarni tuzli birikma bilan aralashmasini qo‘llanishidir. Matoga erkin rasm solishning moy bo‘yoqlarda bosilgan usulidan tashqari yuqorida keltirilgan matoga erkin rasm bosishning barcha usullarida qaynatish jarayonini amalga oshirish kerak bo‘ladi. Bunday matolarni qaynatmasa ham bo‘ladi, ammo keyinchalik uni yuvish yoki unga suv tomchilarini tushishidan saqlash kerak bo‘ladi. Ishning bajarilishida matoga milliy naqshlarini abribandi gulini tabiiy bo‘yoqlar bilan tushurish yo‘li bilan matoga chiziladi. To‘qilishi jihatidan shoyi matosidan farq qiladigan ipakning eng ingichka tolasidan to‘qilgan mato ekselsior deb ataladi. Bu mato juda mayin va pishiq to‘qilishi bilan ajralib turadi. Ekselsior matosining eni 90-80 sm, xom va ishlov berilmagan mato shaffof va qattiq ko‘rinishiga ega. Ishlov berish jarayonida soda qorishmasini suvga solib 45-60 daqiqa qaynatiladi. Soda qorishmasi qaynash jarayonida kamroq qo‘shilsa, u holda ekselsior ozgina yumshaydi, mayin mato shakliga kelmaydi, bunday matoni gaz deb atashadi. Ekselsior tabiiy tollardan to‘qilganli uchun tabiiy bo‘yoqlar yordamida bo‘yaladi. Rang berish jarayonida maxsus dastgohlarga qotirilib, moy qalamlar bilan rasm nusxasi tushiriladi. Batikning matoga gul tushurish yo‘li bilan bajarilgan.

Jadval 1.

№	Izoh	Namuna
1.	Ekselsior matosining xom ko‘rinishi (bo‘yalgan, gaz)	

		
2.	Ekselsior matosini (kalsinirovanniy) soda qorishmasini qo‘shib qaynatilgandan so‘ng.	
Ekselsior matosiga gul tushurish jarayoni		
	Ekselsior matosiga gul tushirishdan so‘ng va bug‘lashdan keyingi xolat	

Shoyi matolari juda nozik va mayin bo‘ladi, shuning uchun ularni tikish jarayonida ingichka tikuv ignalaridan foydalaniladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Научная библиотека диссертаций и авторефератов disserCat <http://www.dissercat.com/>
2. Mavzu bo'yicha dissertatsiya “An’anaviy kiyimlar bichimi asosida ayollar liboslarni yaratish” Yunusxodjayeva Nilufar Doniyorovna, 2014 yil.
3. Batik usulidan foydalanib, milliy liboslarni loyihalash/ N.D. Yunusxodjayeva/ лучшие интеллектуальные исследования международный научный электронный журнал часть-18 том-5 Апрель - 2024 год.